

AZOTLI O'G'ITLARNI SHOLI HOSILDORLIGIGA TA'SIRI

D.A.Turakulov*Namangan muhandisli-texnologiya instituti, dotsent***M.A.Abdurashidov***Namangan muhandisli-texnologiya instituti, magistr*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sholi o'simligining "Mustaqillik" navini azotli o'g'itlarga bo'lgan talabi va uning don hosildorligiga ta'sirini Namangan viloyati och-tusli bo'z tuproqlari sharoitida 2021-2022 yillarda olib borilgan tadqiqot natijalari bayon etilgan.*

Annotation: In this article described the demand of nitrogen fertilizers of the rice plant species which is called "Mustaqillik" and its impact on grain yield, the results of research carried out in the pale brownish grey soil conditions of Namangan region between 2021 and 2022.

Tayanch so'z va iboralar: *Sholi, don, guruch, "Mustaqillik" navi, och-tusli bo'z tuproq, biologik hosil, don hosildorligi, qaytariq, variant, o'g'it, me'yor.*

Keys words and expressions: *Rice, grain, rice, the species of "Independence" pale brownish grey, biological yield, grain yield, repetition, variant, fertilizer, norms .*

Dunyo miqyosida g'alladon ekinlari ichida eng keng tarqalgan ekinlardan biri bu sholi ekinidir. Sholi jaxondagi 108 mamlakatda etishtirilib, g'alladon ekinlari orasida o'zining yuqori hosildorligi bilan ajralib turadi.

O'zbek halqi bu o'simlikni azal-azaldan etishtirib keladi, boisi ushbu o'simlikdan olinadigan asosiy mahsulot guruch hisoblanib, undan turli xil mazali taomlar tayyorlanib, halqimiz tomonidan sevib iste'mol qilinadi.

Respublika aholisining ushbu ekin mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish va to'liq ta'minlash qishloq xo'jalik xodimlari oldidagi muhim muammolaridan hisoblanadi. Bu boradagi muommolarni bartaraf etishda mustaqillik yillari davomida soha olimlari tomonidan ko'plab yangi navlar yaratilib, ularni etishtirish uchun yangi agrotexnologiyalar ishlab chiqilmoqda.

Biz ham ushbu tajribamizda mustaqillik yillarida yaratilgan O'zbekiston Respublikasi Davlat Reestriga kiritilgan sholining "Mustaqillik" navini azotli o'g'itlarga bo'lgan talabini o'rgandik.

Tadqiqot ishlari Namangan viloyati Uchqo'rg'on tumanining och-tusli bo'z tuproqlari sharoitida, qishloq xo'jaligida foydalanilmayotgan Norin daryosi bo'yida olib borildi. Tajribalar dala sharoitida, to'rt qaytariqdan iborat bo'lib, har-bir variantning hisoblash maydoni 20 m², umumiy variant maydoni 40 m². Tajribaning maydoni 640 m². Dala tajribalari maydonida urug' ekish qo'lda va barcha agrotexnik tadbirlar ish dasturiga asosan bajarildi.

Tajribada sholining o'rtapishar "Mustaqillik" naviga azotli o'g'itlar me'yorini quyidagi tartibda berildi. (1-jadval).

1-jadval

Tajriba tizimi

№	Variant	N	R ₂ O ₅	K ₂ O
1	N ₆₀ R ₁₂₀ K ₁₅₀	60	120	150
2	N ₉₀ R ₁₂₀ K ₁₅₀	90	120	150
3	N ₁₂₀ R ₁₂₀ K ₁₅₀	120	120	150
4	N ₁₅₀ R ₁₂₀ K ₁₅₀	150	120	150

Sholining hosildorligini aniqlash davomida tajriba maydonida quyidagi tahlil va hisob-kitoblar olib borildi:

- biologik hosil barcha variantda 3 nuqta 1 m² maydonda sholi o'rib olindi va doni yanchib olinib, tarozida tortish yo'li orqali aniqlandi.

- sholi doni va poxol hosildorligini matematik tahlil qilishda B.A.Dospexovning (1985) ko'p faktorli dispersion tahlil usulidan foydalanildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, tajriba maydonida turli xil oziqlantirish me'yorlarini, hosildorlikka ta'sirini aniqlash uchun olingan natijalar tahlil qilindi.

Tajribada hosildorlikni asosiy sifat va son ko'rsatkichlarini tavsiflab beradigan o'rimdan oldin olingan namuna bog'lamlarini biometrik ko'rsatkichlari ham tahlil qilindi. Bu ko'rsatkichlarga maydon birligidagi hosildor poyalar soni, ro'vakdagi donlarning to'liq pishishi, soni, 1000 dona donning vazni kiritildi. Bu kuzatishlar natijasida sholi etishtirilgan maydondagi hosildorlik aniqlandi. (2-jadval)

Shuningdek, sholi etishtirishda 1 m² maydonda 205-243 ta hosildor poyalar shakllanishi gektaridan o'rtacha 53,9-88 s/ga hosil olishni ta'minladi.

2-jadval

Azotli o'g'itlarni sholi hosildorligiga ta'siri.

№	Variant	Takrorlar bo'yicha				O'rtacha hosildorlik, ss/ga	Farqi, ss/ga
		I	II	III	IV		
1	N ₆₀ R ₁₂₀ K ₁₅₀	53,4	54,3	53,8	54,1	53,9	
2	N ₉₀ R ₁₂₀ K ₁₅₀	68,7	69,5	68,6	69,2	69,0	+ 15,1
3	N ₁₂₀ R ₁₂₀ K ₁₅₀	87,3	88,7	87,9	88,1	88,0	+ 34,1
4	N ₁₅₀ R ₁₂₀ K ₁₅₀	82,5	83,8	83,1	83,4	83,2	+ 29,3

Hosildorlikda 1-variantga nisbatan 2-variantda 15,1ss/ga; 3-variantda 34,1 s/ga; 4-variantda 29,1 s/ga ko'p hosil etishtirildi.

Jadval ma'lumotlarini ta'kidlashicha, faqat N₁₂₀R₁₂₀K₁₅₀ berilganda eng yuqori hosildorlikka (88 s/ga) erishildi. Ushbu fonga 60 kg/ga azotli o'g'it berilishi natijasida hosildorlik o'rtacha 53,9 s/ga, 90 kg/ga azotli o'g'it berilganda 69,0 s/ga ni tashkil etib, azotli o'g'itlar me'yorini ortirilishi hisobiga hosildorlik ortgani qayd etildi. Biroq azotli

o'g'itlar me'yori 120 kg/ga dan 150 kg/ga ortirilgandan hosildorlikda pasayish kuzatilib o'rtacha hosildorlik bu variantda 83,2 s/ga ni tashkil etdi.

SHuni ta'kidlash lozimki azot o'g'iti miqdorini 150 kg/ga oshirilishi hosildorlik poyalarning yotib qolishi va ro'vakda puch donlar sonining ko'payishi hisobiga pasayishiga olib keldi.

Xulosa qilish mumkinki, sholining "Mustaqillik" navini urug'idan o'stirib etishtirilganda o'g'itlar me'yori $N_{120}R_{120}K_{150}$ fonida belgilanishi undan eng yuqori hosil olishni ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR:

1. Abdullaev A. Farg'ona vodiysi sharoitida sholini ko'chat usulida etishtirish texnologiyasining ayrim xususiyatlari. Paxtachilik va donchilik ilmiy texnika jurnali.-Toshkent, 2000.
2. Abdullaev A. Sholini ko'chat usulida etishtirish. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali.-Toshkent, 2005.
3. Yo'ldoshev H.S. O'simlik mahsulotlari etishtirish texnologiyasi. T., «Mehnat», 2002.
4. Salimov O.P. Sholini mintaqalar bo'yicha ekish muddatlari. Toshkent, «O'qituvchi», 1997. 1. Turdaliev A. T. et al. Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2022. – T. 1068. – №. 1. – C. 012047.
5. Абдурахимова М. А. Доривор о'simliklarning o'sishi va rivojlanishi va dорivор xususiyatlaridan foydalanish //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D3. – C. 35-42.
6. Abdurahimova M. et al. HEALING PROPERTIES OF MEDICINAL WHITE AND BLACK (SESAME) SESAME //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 100-104.
7. Abdurahimova M., Nazirjonov U., Muhammadjonov R. DORIVOR ECHINACEA PURPUREA O'SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI VA UNDAN HALQ TABOBATIDA FOYALANISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D6. – C. 197-201.
8. Abdurahimova M., Mamadaliyeva D., Siddiqova G. DORIVOR O'SIMLIK ISIRIQNING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D6. – C. 185-188.
9. Abdurahimova M., Nazirjonov U., Muhammadjonov R. USEFUL PROPERTIES OF THE MEDICINAL PLANT ESHINACEA PURPUREA AND ITS USAGE IN FOLK MEDICINE //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 197-201.

10. Abdurahimova, M. A., & Muratova, R. T. (2023). ERMAK VA NA'MATAK O 'SIMLIGINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARINI O 'RGATISH ORQALI TALABALARNING XALQ TABOBATIGA BO 'LGAN QIZIQISHLARINI OSHIRISH. PEDAGOG, 6(12), 42-46.

11. Abdurahimova, M. A. (2023). IBOLOGIYA FANINI O 'QITISHDAGI INNOVATSIYALAR VA ILG 'OR XORIJIY TAJRIBALAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(16), 518-521.

12. Abdurahimova, M. A., & Oybek o'g, Y. L. S. (2023). SO'YA O'SIMLIGINING MORFOLOGIYASI VA YETISHTIRSH TEXNOLOGIYASI. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(16), 522-527.

13. Abdurahimova, M. A., & Rustamova, M. S. (2023). FORMAKOPIYA DORIVOR O 'SIMLIKLAR FANINI O'QITISHDA PEDAGOGIK VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI. THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH, 2(20), 69-75.

14. Abdurahimova, M. A. (2023). DORIVOR XOM ASHYOSI PO 'STLOQ XISOBLANGAN O 'SIMLIKLARNI O 'RGANISH VA ULARDAN OLINADIGAN PREPARATLARNI TIBBIYOTDA QO 'LLANILISHI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 198-200.